| <b>Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li</b>  |     |
| BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR<br>VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....  | 827 |
| <b>G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li</b>   |     |



# BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada banklarning moliyaviy barqarorligini xalqaro usullar va mezonlar — Bazel III, CAMELS va stress-test asosida baholashni takomillashtirishga oid besh yo'nalishdagi ilmiy yangiliklar asoslanadi: kredit riskini CAMELS (60%) va xalqaro reyting agentliklari (40%) sintetik koeffitsiyenti asosida baholash hamda mahalliy kontragentlar uchun TIER1 ning 25% limiti; likvidlilik riskini uchta himoya chizig'i, LCR, NSFR va GAP-tahlil orqali boshqarish hamda avtomatik erta ogohlantirish mexanizmi; sakkiz ssenariyli majburiy stress-test tizimi; operatsion samaradorlik uchun CIR ning yuqori chegarasini 50% darajasida belgilash; shuningdek, an'anaviy CAMELS tizimini prognostik (+P) va texnologik (+T) bloklar bilan boyitgan "CAMELS PT" modeli. Takliflar O'zbekistonning uchta tijorat banki — Asia Alliance Bank, Aloqabank va Mikrokreditbankning 2020–2025-yillardagi ma'lumotlari asosida empirik jihatdan asoslanib, AT "Aloqabank" misolida aprotatsiyadan o'tkazilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy barqarorlik, Bazel III, kredit riski, sintetik koeffitsiyent, reyting agentliklari, likvidlilik riski, LCR, NSFR, GAP-tahlil, stress-test, CIR, CAMELS PT, erta ogohlantirish, prognostik baholash.

**Abstract.** This article substantiates five scientific novelties for improving the assessment of banks' financial stability based on international methods and criteria — Basel III, CAMELS and stress testing: assessing credit risk through a synthetic coefficient combining CAMELS (60%) and international rating agencies (40%) with a 25% TIER1 limit for local counterparties; managing liquidity risk through three lines of defence, LCR, NSFR and GAP analysis, as well as an automatic early-warning mechanism; an eight-scenario mandatory stress-testing system; setting the upper bound of the CIR at 50% for operational efficiency; and the "CAMELS PT" model, which enriches the traditional CAMELS system with prognostic (+P) and technological (+T) blocks. The proposals are empirically grounded on 2020–2025 data from three Uzbek commercial banks — Asia Alliance Bank, Aloqabank and Mikrokreditbank — and tested using the case of JSC "Aloqabank".

**Keywords:** financial stability, Basel III, credit risk, synthetic coefficient, rating agencies, liquidity risk, LCR, NSFR, GAP analysis, stress testing, CIR, CAMELS PT, early warning, forward-looking assessment.

**Аннотация.** В статье обосновываются пять научных новшеств по совершенствованию оценки финансовой устойчивости банков на основе международных методов и критериев — Базель III, CAMELS и стресс-тестирование: оценка кредитного риска через синтетический коэффициент, объединяющий CAMELS (60%) и международные рейтинговые агентства (40%), с лимитом 25% от TIER1 для местных контрагентов; управление риском ликвидности через три линии защиты, LCR, NSFR и GAP-анализ, а также механизм автоматического раннего предупреждения; обязательная система стресс-тестирования с восемью сценариями; установление верхней границы CIR на уровне 50% для операционной эффективности; а также модель «CAMELS PT», дополняющая традиционную систему прогностическим (+P) и технологическим (+T) блоками. Предложения эмпирически обоснованы на данных трёх коммерческих банков Узбекистана за 2020–2025 годы и апробированы на примере АО «Aloqabank».

**Ключевые слова:** финансовая устойчивость, Базель III, кредитный риск, синтетический коэффициент, рейтинговые агентства, риск ликвидности, LCR, NSFR, GAP-анализ, стресс-тестирование, CIR, CAMELS PT, раннее предупреждение, прогностическая оценка.

## KIRISH

Bank tizimi moliyaviy vositachilikning mustahkam asosi sifatida pul resurslarini samarali taqsimlash va iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz, 2023-yilda AQSHning Silicon Valley Bank (SVB) va Signature Bank bankrot bo'lishi hamda 2024-yildagi Yevropa



banklari qiyinchiliklari moliyaviy barqarorlikni baholash tizimlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. SVB inqirozi alohida e'tiborga molik: bank oylik hisobotda "barqaror" ko'ringan holda bir necha kun ichida 42 mlrd dollarlik depozit chiqimi natijasida to'lov qobiliyatini yo'qotdi. Bu hodisa moliyaviy barqarorlikni real vaqtda, bashoratli (forward-looking) tarzda baholash zaruratini ko'rsatdi.

O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlik masalasi strategik ahamiyatga ega. 2021–2025-yillarda bank aktivlari 445 trln so'mdan 925 trln so'mga, ya'ni 2 barobardan ortiq oshdi, banklar soni 33 tadan 35 taga ko'tarildi, jami kreditlar 1,9 barobar, depozitlar 2,7 barobar oshdi. Biroq aktivlar sifati, operatsion samaradorlik, rentabellik va stress-test amaliyoti kabi yo'nalishlarni xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirish zarur. Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Jahon bankining 2025-yilgi FSAP baholashida davlat banklarining aktivlardagi 66 foizlik ustunligi, NPL tasnifidagi metodologik nomutanosiblik va stress-test tizimining shakllanmaganligi takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlar sifatida qayd etildi.

Mazkur maqolaning maqsadi — banklarning moliyaviy barqarorligini xalqaro usullar va mezonlar asosida baholashni takomillashtirishga qaratilgan beshta ilmiy yangilikni yagona tizim sifatida asoslash va ularning amaliy samaradorligini O'zbekiston tijorat banklari ma'lumotlari asosida ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: (1) kredit riskini ichki va tashqi baho manbalarini birlashtiruvchi sintetik koeffitsiyent asosida baholash; (2) likvidlilik riskini uch himoya chizig'i va avtomatik erta ogohlantirish mexanizmi orqali boshqarish; (3) sakkiz ssenariyli majburiy stress-test tizimi; (4) operatsion samaradorlik uchun CIR ning 50% chegarasi; va (5) an'anaviy CAMELS tizimini bashoratlash va texnologik bloklar bilan boyitgan "CAMELS PT" modeli.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklar moliyaviy barqarorligini baholash masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotda keng tadqiq etilgan. Bank ishi nazariyasida O. M. W. Sprague (1910) bank barqarorligining buzilishini tashqi inqirozlar bilan emas, balki tizimli ichki nuqsonlar — ommaviy omonat qaytarib olinishi (run) va aktivlarning tez pulga aylanmasligi (illiquidity) bilan bog'ladi. F. S. Mishkin axborot asimmetriyasini bank tizimi barqarorligining markaziy omili sifatida ko'rsatib, kapital yetariligi, samarali nazorat, omonatlar kafolati va hisobotlar shaffofligini barqarorlikning asosiy shartlari deb belgiladi. C. M. Reinhart va K. S. Rogoff (2009) "bu safar boshqacha" sindromini ilmiy inkor etib, inqirozlar mexanizmi — qarz ortishi va likvidlilik kamayishi — o'zgarimasligini ko'rsatdi.

D. Diamond va P. Dybvigning (1983) "bank run" modeli depozit bazasidagi yuqori konsentratsiya tizimli likvidlilik inqirozini yuzaga keltirishi mumkinligini isbotladi. Mualliflar 2022-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. T. Adrian (2025) bank kredit risklarining suveren qarz riskiga aylanishi ("doom loop") mexanizmini tahlil qildi. Kapital monandliligini barqarorlikning asosiy omili sifatida A. Demirgüç-Kunt va E. Detragiache (2002) aniqlagan. CAMELS reyting tizimi AQSH nazorat organlari tomonidan 1979-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, R. A. Cole va J. W. Gunther (1998), R. S. Barr va boshqalar (1994) uning bankrotlik bashoratidagi samaradorligini tasdiqlagan. Bazel qo'mitasining Bazel I (1988), Bazel II (2004) va Bazel III (2010; 2017) standartlari kapital sifati, likvidlilik (LCR, NSFR) va tizimli risk bo'yicha miqdoriy mezonlarni belgiladi.

O'zbekiston bank tizimi bo'yicha Sh. Z. Abdullayeva, B. T. Berdiyarov, N. G'. Karimov, F. Xolmamatov, I. Qulliyev va boshqalarning ishlarida Bazel III me'yorlarini joriy etishning amaliy jihatlari o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda kredit riskini ichki va tashqi baho manbalarini birlashtiruvchi sintetik koeffitsiyent asosida baholash, likvidlilik riskini real vaqt monitoringi orqali kompleks boshqarish, majburiy sakkiz ssenariyli stress-test arxitekturasi hamda CAMELS tizimiga prognostik va texnologik bloklarni qo'shish masalalari O'zbekiston tijorat banklari miqyosida tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirish ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy statistikasi (2020–2025-yillar), tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, XVF va Jahon bankining baholash xulosalari hamda AT "Aloqabank"ning ichki me'yoriy hujjatlaridan asosiy manba sifatida foydalanilgan. Tadqiqot obyekti sifatida hajmi, mulk shakli va biznes modeli jihatidan farq qiluvchi uchta bank tanlandi: Asia Alliance Bank (xususiy tijorat banki), Aloqabank (davlat ulushi mavjud yirik bank) va Mikrokreditbank (davlat dasturlarini ijroga yo'naltiruvchi bank).

Tadqiqotda tahlil va sintez, koeffitsiyentli tahlil, reyting baholash, qiyosiy va trend tahlili, OLS regressiya hamda VAR ekonometrik modellashtirish, Holt eksponensial silliqlash ( $\alpha=0,35$ ,  $\beta=0,12$ , 90% ishonch oralig'i) va GAP-tahlil usullaridan kompleks foydalanildi. Qo'llanilgan asosiy metodologik yondashuvlar 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadval

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar<sup>1</sup>

| Metod                          | Asosiy ko'rsatkichlar        | Mezon / Standart                   |
|--------------------------------|------------------------------|------------------------------------|
| Kapital yetarliligi tahlili    | CAR, Tier1, CET1, Leverage   | Bazel III: CAR≥13%,<br>Leverage≥3% |
| Likvidlilik tahlili            | LCR, NSFR, HQLA, GAP         | LCR≥100%, NSFR≥100%                |
| Rentabellik va samaradorlik    | ROA, ROE, NIM, CIR           | ROA>1,5%; ROE>15%; CIR<50%         |
| CAMELS / CAMELS PT reyting     | C, A, M, E, L, S, +P, +T     | 1–5 reyting shkalasi               |
| Kredit riski (sintetik koeff.) | CAMELS bahosi + reyting      | TIER1 ning 25% limiti              |
| Stress-test                    | CAR, LCR, NPL stress ta'siri | 8 ssenariy (bazis→katastrofik)     |
| Ekonometrik tahlil             | OLS, VAR, Holt prognoz       | 2020–2025; 2026–2030 prognoz       |

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tanlangan uchta bankning 2021–2025-yillardagi kapital va likvidlilik ko'rsatkichlari dinamikasi 2-jadvalda keltirilgan. Tahlil ko'rsatdiki, uchala bank ham kapital monandligi va likvidlilik normativlarini asosan bajargan, biroq Aloqabankning 2022-yildagi CAR ko'rsatkichi (12,5%) minimal normativdan past tushgan yagona holat bo'lib, alohida nazorat zarurligini ko'rsatdi. Aloqabankning 2023-yildagi LCR ko'rsatkichi (103,1%) ham normativ chegarasiga yaqinlashgan.

2-jadval

Tanlangan banklarning kapital va likvidlilik ko'rsatkichlari (2021–2025, %)<sup>2</sup>

| Bank / Ko'rsatkich     | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  | 2025  | Norm. |
|------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Asia Alliance - CAR    | 13,9  | 14,4  | 14,7  | 17,0  | 15,4  | ≥13   |
| Asia Alliance - LCR    | 227,4 | 381,4 | 282,1 | 308,6 | 259,7 | ≥100  |
| Asia Alliance - NSFR   | 124,8 | 153,1 | 122,4 | 118,8 | 140,2 | ≥100  |
| Aloqabank - CAR        | 13,2  | 12,5* | 16,4  | 13,9  | 14,1  | ≥13   |
| Aloqabank - LCR        | 110,9 | 226,8 | 103,1 | 144,4 | 142,0 | ≥100  |
| Aloqabank - NSFR       | 108,0 | 100,9 | 102,8 | 106,6 | 103,4 | ≥100  |
| Mikrokreditbank - CAR  | 13,8  | 21,0  | 18,6  | 15,4  | 18,5  | ≥13   |
| Mikrokreditbank - LCR  | 165,2 | 156,4 | 131,7 | 169,0 | 231,9 | ≥100  |
| Mikrokreditbank - NSFR | 117,1 | 114,3 | 108,3 | 113,1 | 113,0 | ≥100  |

Rentabellik va operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari (3-jadval) uchta bank o'rtasidagi keskin farqni namoyon etdi. Asia Alliance Bank transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirib, ROA ni 0,7% dan 6,2% ga, ROE ni 5% dan 42,3% ga ko'tardi va CIR ni 59% dan 38,1% ga pasaytirdi. Aksincha, Aloqabankning CIR ko'rsatkichi 58,2% dan 61,3% ga oshib, normativdan oshib ketdi, Mikrokreditbankniki esa 65,3% ni tashkil etdi. Bu ma'lumotlar operatsion samaradorlik bilan moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi.

3-jadval

Tijorat banklarining rentabellik va samaradorlik ko'rsatkichlari (%)<sup>3</sup>

| Bank / Ko'rsatkich    | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 | Me'yor |
|-----------------------|------|------|------|------|------|--------|
| Asia Alliance - ROA   | 0,7  | 2,5  | 4,5  | 4,9  | 6,2  | >1,5   |
| Asia Alliance - CIR   | 59,0 | 39,7 | 34,6 | 38,4 | 38,1 | <50    |
| Aloqabank - ROA       | 0,4  | 0,8  | 3,8  | 0,7  | 0,9  | >1,5   |
| Aloqabank - ROE       | 3,1  | 6,6  | 27,4 | 5,5  | 7,3  | >15    |
| Aloqabank - CIR       | 58,2 | 51,8 | 41,1 | 49,8 | 61,3 | <50    |
| Mikrokreditbank - ROA | 0,1  | 0,1  | 0,2  | -6,3 | 0,6  | >1,5   |
| Mikrokreditbank - CIR | 49,4 | 54,7 | 64,9 | 80,1 | 65,3 | <50    |

Ekonometrik tahlil (OLS regressiya) kapital monandligi va muammoli kreditlar o'rtasida kuchli teskari bog'liqlikni ( $r = -0,556$ ) tasdiqladi: YAIM 1% ga oshganda NPL 0,18% ga ko'payadi, CAR 1% ga oshganda esa NPL 0,26% ga kamayadi. Bundan tashqari, regulyativ NPL (3,0%) va IFRS 9 Stage 3 (7,5%) ko'rsatkichlari

1 Manba: dissertatsiya natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2 \* Norm buzilgan (CAR=12,5%<13%). Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tahlili.

3 Manba: Markaziy bank hisobot ma'lumotlari asosida muallif tahlili.



o'rtasida 2,5 barobarlik tafovut aniqlandi. Quyida ushbu empirik natijalar asosida ishlab chiqilgan beshta ilmiy yangilik ketma-ket asoslanadi.

### 1. Kredit riskini sintetik koeffitsiyent asosida baholash.

An'anaviy kredit riskini baholashda faqat bitta manbaga — bankning ichki bahosi yoki tashqi reytingga — tayanish yetarli emas. Shu sababli bankning kontragentlar bilan operatsiyalari bo'yicha kredit riskini ikki manbani birlashtiruvchi sintetik koeffitsiyent asosida baholash taklif etiladi: ichki CAMELS bahosi (vazni 60%) bankning nazorat nuqtayi nazaridan chuqur tahlilini, xalqaro reyting agentliklari — Moody's, S&P va Fitch — baholari (vazni 40%) esa bozor tomonidan tasdiqlangan obyektiv qarashni ta'minlaydi. Sintetik baho quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Sintetik baho} = 0,60 \times \text{CAMELS\_bahosi} + 0,40 \times \text{Reyting\_agentliklari\_bahosi}$$

Kredit konsentratsiyasi riskini cheklash maqsadida mahalliy kontragentlar uchun limit bankning birinchi darajali kapitali (TIER1)ning 25 foizidan oshmasligi sharti bilan belgilanadi. Mazkur chegara Bazel III ning yirik riskli pozitsiyalar (large exposures) tamoyiliga muvofiq bo'lib, bitta kontragentga yuqori darajadagi bog'liqlikdan yuzaga keladigan riskni kamaytiradi. Yondashuv ichki va tashqi baholashni uyg'unlashtirib, baholashning aniqligini oshiradi. Taklif AT "Aloqabank"da tatbiq etilib, xalqaro reyting agentliklari ma'lumotlari asosida limitlarni chorakda qayta ko'rib chiqish tizimi joriy etildi; bir mamlakatdagi barcha kontragentlar limitlari yig'indisi mamlakat limitidan oshmasligi sharti belgilandi. Natijada bankning 2025-yil yakuni bo'yicha banklardagi hisobraqamlaridagi mablag'lar 2 370,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilga (866,1 mlrd so'm) nisbatan 2,7 barobarga oshdi.

### 2. Likvidlilik riskini uch himoya chizig'i va erta ogohlantirish asosida boshqarish.

O'zbekiston tijorat banklarida likvidlilik riski alohida dolzarblik kasb etadi: Aloqabankning kredit-depozit nisbati 117%, Mikro kreditbankda 199% ni tashkil etadi, depozit bazasida yirik korporativ mijozlar ulushi o'rtacha 35–40% ga yetadi. 2023-yilgi SVB inqirozi (bir necha kun ichida 42 mlrd dollarlik depozit chiqimi) va Diamond–Dybvig (1983)ning bank run modeli likvidlilikni real vaqtda boshqarish zaruratini ko'rsatdi.

Shu asosda likvidlilik riskini uch himoya chizig'i orqali boshqarish taklif etiladi: birinchi chiziq — tuzilmaviy bo'linmalar (kundalik monitoring); ikkinchi chiziq — risk-menejment departamenti (tahlil va chora); uchinchi chiziq — ichki audit (mustaqil tekshiruv). Bunda LCR, NSFR va GAP-tahlil instrumentlaridan kompleks foydalaniladi. Eng muhimi, likvidlilik darajasi 10 foizga o'zgartirish yoki o'rnatilgan normativga 5 foiz punktga yaqinlashganda avtomatik ogohlantirish beruvchi erta ogohlantirish mexanizmi joriy etiladi. Ushbu mexanizm bankni reaktiv emas, proaktiv boshqaruvga o'tkazib, inqirozni yuzaga kelishidan oldin aniqlash imkonini beradi. Taklif AT "Aloqabank"da oylik LCR/NSFR monitoringi va GAP-jadvalini yuritishda tatbiq etilib, LCR = 142% holatida normativga (100%) nisbatan 42 foiz punkt bufer saqlanishi ta'minlandi va u 2024-yil 26-apreldagi 28/1-sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan nizomda aks ettirildi.

### 3. Sakkiz ssenariyli majburiy stress-test tizimi.

O'zbekiston bank tizimida majburiy stress-test amaliyotini standartlashtirish zarurati muhim yo'nalishlardan biri sifatida aniqlandi. XVF va Jahon bankinging FSAP baholashida noqulay ssenariyda ayrim davlat banklarida CAR normativi buzilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Xalqaro tajriba qiyosi (AQSH FED DFAST — 9 ssenariy, Qozog'iston ICAAP — 5 ssenariy, Singapur MAS — AI asosida ko'p ssenariy) majburiy stress-test tizimining samaradorligini tasdiqladi. 2023-yilgi SVB inqirozi aynan majburiy stress-test doirasidan tashqarida qolgan bankda yuz bergani stress-testni miqdor chegarasiz barcha ahamiyatli banklar uchun majburiy qilish zarurligini ko'rsatdi.

Shu asosda bazis, noqulay (pessimistik), kritik va katastrofik ssenariylarni qamrab oluvchi sakkiz ssenariyli majburiy stress-test tizimi taklif etiladi. Har bir ssenariy bo'yicha aniq miqdoriy parametrlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval  
O'zbekiston tijorat banklari uchun majburiy stress-test parametrlari<sup>4</sup>

| Parametr               | Bazis | Noqulay       | Keskin noqulay  | Manba/Metod        |
|------------------------|-------|---------------|-----------------|--------------------|
| YAIM o'sishi           | 7,7%  | 4,0%          | 1,0%            | MB va XVF prognozi |
| NPL oshishi            | 3,0%  | 6,0%          | 10,0%           | EBA mezoni         |
| Valyuta devalvatsiyasi | —     | 20%           | 40%             | Tarixiy tebranish  |
| MB stavkasi            | 14,0% | 16,0%         | 18,0%           | Monetar shok       |
| CAR ta'siri            | 18,3% | 15,5–16,0%    | 12,5–13,0%      | Me'yor             |
| Likvidlilik (LCR)      | 141%  | 150%          | 110–120%        | Me'yor             |
| Tizimli zarar (tax.)   | —     | 3–5 trln so'm | 10–15 trln so'm | Zaxira oshishi     |

4 Manba: dissertatsiya 3.7-jadvali asosida muallif tomonidan tuzildi.



ModelAT “Aloqabank”da BCBS (2018) “Stress Testing Principles” standartining sakkiz tamoyilidan yettitasiga muvofiq tatbiq etildi (5-jadval) va Kuzatuv kengashining 2025-yil 16-dekabrda 105-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan nizomda amaliy aks ettirildi. Joriy etish natijasida depozitlar 20–30% kamaygan taqdirda LCR va CAR ko'rsatkichlari dinamikasini oldindan baholash imkoni yaratildi.

5-jadval  
Aloqabankda stress-test tizimining BCBS tamoyillariga muvofiqligi<sup>5</sup>

| BCBS tamoyili                                 | Mazmuni                                 | Muvofiqlik |
|---|---|------------|
| Principle 1: Integral to risk governance      | Korporativ boshqaruvning ajralmas qismi | yuqori ✓   |
| Principle 2: Senior management accountability | Boshqaruvning bevosita ishtiroki        | yuqori ✓   |
| Principle 3: Forward-looking                  | Yangi risklarni bashoratli aniqlash     | o'rta      |
| Principle 5: Comprehensive                    | Bo'linmalar fikrini hisobga olish       | o'rta      |
| Principle 6: Multiple scenarios               | Turli ssenariy va usullar               | yuqori ✓   |
| Principle 7: Complementary tool               | Boshqa instrumentlarga qo'shimcha       | yuqori ✓   |
| Principle 8: Funding liquidity link           | Likvidlilik–moliyalash bog'liqligi      | yuqori ✓   |
| Principle 9: Regular review                   | Muntazam qayta ko'rib chiqish           | yuqori ✓   |

#### 4. Operatsion samaradorlik uchun CIR ning 50% chegarasi.

Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi (CIR — xarajatning daromadga nisbati) O'zbekiston banklari moliyaviy barqarorligining muhim zaif nuqtasi ekanligi empirik asoslandi. Xalqaro amaliyotda CIR < 50% — samarali bank, 50–60% — o'rta, CIR > 60% — operatsion samaradorlik bo'yicha yuqori xarajalar darajasini ifodalaydi. Tahlil natijasida Aloqabankning CIR ko'rsatkichi 61,3%, Mikrokreditbankniki 65,3% ni tashkil etib, xalqaro mezonlarga nisbatan yaxshilanish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Aksincha, transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan Asia Alliance Bankning CIR ko'rsatkichi 59% dan 38,1% ga pasayishi operatsion samaradorlik bilan moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatdi. Berger va Humphrey (1997) ning 130 mamlakat banklari bo'yicha tadqiqotida CIR > 65% bo'lgan banklar rentabelligi CIR < 50% banklardan o'rta 3,2 barobar past ekanligi isbotlangan.

Shu asosda tijorat banklarida operatsion samaradorlikni oshirish va xarajalar nazoratini kuchaytirish maqsadida CIR ko'rsatkichining yuqori chegarasini 50 foiz darajasida belgilash taklif etiladi. Mazkur me'yor banklarni xarajatlarni optimallashtirishga, daromad bazasini diversifikatsiyalashga va RPA (Robotic Process Automation) hamda raqamli banking orqali jarayonlarni avtomatlashtirishga undaydi. Taklif AT “Aloqabank”ning 2025-yil 21-noyabrda 97-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan 2026-yil biznes-rejasida inobatga olinib, bank CIR ko'rsatkichini 48% darajasiga tushirish maqsadi belgilandi.

#### 5. “CAMELS PT” bashoratlash-baholash modeli.

Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi sifatida an'anaviy CAMELS reyting tizimini ikki yangi bo'lim bilan boyitgan “CAMELS PT” modeli ishlab chiqildi. Model CAMELSning oltita an'anaviy komponenti (C, A, M, E, L, S) ustiga prognostik (+P) va texnologik (+T) bloklarni qo'shadi (6-jadval). Prognostik blok (+P) makroiqtisodiy omillar — YAIM o'sishi, inflyatsiya va Markaziy bank asosiy stavkasining bank barqarorligiga ta'sirini OLS regressiyasi va VAR modeli orqali 36 oylik gorizontalda bashorat qiladi (Holt eksponensial silliqlash,  $\alpha = 0,35$ ,  $\beta = 0,12$ , 90% ishonch oralig'i). Texnologik blok (+T) esa FinTech riski, kiberxavfsizlik tahdidlari va RegTech muvofiqligi darajasini MAS FEAT mezonlari hamda AI vulnerability scan instrumenti orqali baholab, raqamli iqtisodiyot davridagi yangi toifadagi risklarni rasmiy baholash tizimiga integratsiya qiladi.

6-jadval  
“CAMELS PT” modeli tuzilmasi<sup>6</sup>

| Bo'lim          | Komponentlar                        | O'lchov usuli      | Bashorat      |
|-----------------|-------------------------------------|--------------------|---------------|
| C - Kapital     | CAR, Tier1, CET1, Leverage          | Bazel III normativ | 12 oy stress  |
| A - Aktivlar    | NPL, IFRS 9 Stage 3, konsentratsiya | IFRS 9 ECL + AQR   | 18 oy         |
| M - Menejment   | CIR, korp. boshqaruv, audit         | BCBS 2015          | —             |
| E - Daromad     | ROA, ROE, NIM, diversifikatsiya     | IFSI indeks (0–5)  | 12 oy Holt    |
| L - Likvidlik   | LCR, NSFR, LDR                      | Bazel III LCR/NSFR | 30 kun stress |
| S - Bozor riski | Valyuta poz., foiz sezgirligi, VaR  | CoVaR              | 3 oy VaR      |
| +P - Bashorat   | YAIM, inflyatsiya, MB stavkasi      | OLS + VAR          | 36 oy         |
| +T - Texnologik | FinTech, kiber, RegTech muvofiqligi | MAS FEAT           | —             |

5 Manba: dissertatsiya 3.8-jadvali asosida muallif tomonidan tuzildi.

6 Manba: dissertatsiya 3.9-jadvali asosida muallif tomonidan tuzildi.



Model AT “Aloqabank” misolida aprobatsiyadan o‘tkazildi. Bankning 2025-yilgi integral bahosi 2,80 (“Kuzatuv zarur”) zonasida bo‘lib, kapital va likvidlilik jihatidan normativni bajaradi, ammo daromadlilik (ROA = 0,92%) va operatsion samaradorlik (CIR = 61,3%) xalqaro me’yordan ortda qolmoqda. Maqsadli ssenariyda 10 ta tavsiyani tizimli amalga oshirish orqali 2030-yilga bank integral bahosi 3,60 (“Yaxshi”) zonasiga ko‘tarilishi prognoz qilindi (7-jadval).

7-jadval

Aloqabank asosiy ko‘rsatkichlari prognozi (bazis va maqsadli ssenariy)<sup>7</sup>

| Ko‘rsatkich    | 2025 haqiqiy | 2026 | 2027 | 2028  | 2030 maqsad | Me‘yor |
|----------------|--------------|------|------|-------|-------------|--------|
| ROA (%)        | 0,92         | 1,18 | 1,28 | 1,37  | 2,0–2,2     | >1,5   |
| ROE (%)        | 7,3          | 9,5  | 10,8 | 12,1  | 14–16       | >15    |
| CIR (%)        | 61,3         | 58,0 | 55,0 | 52–54 | 48–50       | <50    |
| NIM (%)        | 3,8          | 3,9  | 4,0  | 4,1   | 4,3–4,5     | >4     |
| CAR (%)        | 14,1         | 14,5 | 15,0 | 15,0  | 15–16       | ≥13    |
| LCR (%)        | 142          | 148  | 155  | 160   | 165–175     | ≥100   |
| NPL (%)        | 3,92         | 3,70 | 3,40 | 3,20  | 2,8–3,0     | <5     |
| CAMELS PT ball | 2,80         | 3,00 | 3,20 | 3,35  | 3,5–3,8     | >3,5   |

Mazkur model bank nazoratini “reaktiv”dan “proaktiv” darajaga o‘tkazadi va XBRL ma’lumotlari hamda Markaziy bankning SupTech platformasi bilan birlashtirilganda kuchli tahliliy bashoratlash vositasiga aylanadi. Beshta yangilik birgalikda yagona, o‘zaro to‘ldiruvchi tizimni tashkil etadi: sintetik kredit bahosi va likvidlilik monitoringi joriy holatni nazorat qilsa, stress-test va prognostik blok kelajak ssenariylarini, CIR me‘yori esa ichki samaradorlikni ta’minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, O‘zbekiston bank tizimi 2020–2025-yillarda miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘yicha jadal o‘sdi, biroq sifat ko‘rsatkichlari — rentabellik, aktivlar sifati va operatsion samaradorlik — xalqaro me‘yorlardan past qolmoqda. Ekonometrik tahlil kapital monandligi va NPL o‘rtasidagi kuchli teskari bog‘liqlikni ( $r = -0,556$ ), shuningdek, regulyativ NPL (3,0%) va IFRS 9 Stage 3 (7,5%) o‘rtasidagi 2,5 barobarlik tafovutni tasdiqladi.

Ikkinchidan, maqolada asoslangan beshta ilmiy yangilik — sintetik kredit-baho koeffitsiyenti va TIER1ning 25% limiti, uch himoya chizig‘i va avtomatik erta ogohlantirish mexanizmi, sakkiz ssenariyli majburiy stress-test, CIR ning 50% chegarasi hamda “CAMELS PT” modeli — banklarning moliyaviy barqarorligini baholashni reaktiv yondashuvdan proaktiv, bashoratli yondashuvga o‘tkazadi. Bu takliflarning samaradorligi AT “Aloqabank” misolida aprobatsiya qilinib, Kuzatuv kengashining tegishli bayonnomalari bilan tasdiqlangan ichki nizomlarda amaliy aks ettirildi.

Uchinchidan, takliflarni izchil zanjir sifatida amalga oshirish tadqiqotning asosiy metodologik xulosasidir: ular 2026–2030-yillarda “tezkor”, “o‘rta muddatli” va “uzoq muddatli” bosqichlarda muvofiqlashtirilgan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq. Mazkur xulosalar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki prudensial nazorat tizimini va tijorat banklari ichki boshqaruv standartlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Revised version. – Basel: Bank for International Settlements, 2011; Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms. – Basel: Bank for International Settlements, 2017.

2. Basel Committee on Banking Supervision. Stress testing principles. – Basel: Bank for International Settlements, 2018.

3. Basel Committee on Banking Supervision. Corporate governance principles for banks. – Basel: Bank for International Settlements, 2015.

4. Diamond D. W., Dybvig P. H. Bank runs, deposit insurance, and liquidity // Journal of Political Economy. – 1983. – Vol. 91, No. 3. – P. 401–419. DOI: 10.1086/261155.

<sup>7</sup> Manba: dissertatsiya 3.10-jadvali asosida muallif tomonidan tuzildi (2026–2030 — bashorat).



5. Demirgüç-Kunt A., Detragiache E. Does deposit insurance increase banking system stability? An empirical investigation // *Journal of Monetary Economics*. – 2002. – Vol. 49, No. 7. – P. 1373–1406. DOI: 10.1016/S0304-3932(02)00171-X.
6. Cole R. A., Gunther J. W. Predicting bank failures: A comparison of on- and off-site monitoring systems // *Journal of Financial Services Research*. – 1998. – Vol. 13, No. 2. – P. 103–117. DOI: 10.1023/A:1007954718966.
7. Barr R. S., Seiford L. M., Siems T. F. Forecasting bank failure: A non-parametric frontier estimation approach // *Recherches Économiques de Louvain / Louvain Economic Review*. – 1994. – Vol. 60, No. 4. – P. 417–429.
8. Berger A. N., Humphrey D. B. Efficiency of financial institutions: International survey and directions for future research // *European Journal of Operational Research*. – 1997. – Vol. 98, No. 2. – P. 175–212. DOI: 10.1016/S0377-2217(96)00342-6.
9. Reinhart C. M., Rogoff K. S. *This Time Is Different: Eight Centuries of Financial Folly*. – Princeton: Princeton University Press, 2009.
10. Adrian T., Qureshi M. S., Tsuruga T. Bank to sovereign risk transmission: New evidence // *Global Financial Stability Notes*. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2025. – No. 2025/003.
11. Mishkin F. S. *Understanding financial crises: A developing country perspective*. – Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 1996. – NBER Working Paper No. 5600.
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari, statistik byulletenlar va yillik hisobotlar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024–2025.
13. International Monetary Fund; World Bank. *Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment*. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2025. – IMF Staff Country Report No. 25/145.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>